
Qadring baland bo'lsin, ona tilim!

Rishton tumanida "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilinganining 33 yilligi va O'zbek tili bayrami kuni keng nishonlanmoqda. Tuman hokimligi tashabbusi bilan joylarda "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Bugun tuman madaniyat markazida ushbu qutlug' sana munosabati bilan tantanali bayram tadbiri o'tkazildi. Unda tuman hokimligi, tashkilotlar, ta'lim muassasalari vakillari, ijodkorlar, iqtidorli yoshlar, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Bayram tadbirida avvalida tuman hokimi o'rinbosari Z. Umarov so'zga chiqib, barcha rishtonliklarni o'zbek tili bayrami bilan qutladi. – Ona tili millatning ruhi, borligimiz va birligimiz timsolidir, uni asrash va rivojlantirish har bir fuqaroning insoniy burchi hisoblanadi, – dedi tuman hokimi o'rinbosari. – Til har bir millat madaniyatining o'zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat va an'alarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashishimiz lozim.

Tadbirda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgani alohida qayd etilib, istiqlol yillarida barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz bergani ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev tomonidan so'nggi yillarda yurtimizda davlat tili maqomini yanada yuksaltirishga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Prezidentimizning 2019 yil 21 oktyabr kungi farmoni bilan ushbu sana yurtimizda O'zbek tili bayrami kuni deb belgilandi. Tadbir davomida "Ona tilim, sarchashmangdan sarxush dilim" shiori ostida o'tkazilgan tanlovining tuman bosqichi g'oliblari faxriy yorliq, tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Shuningdek, bir guruh ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari ham "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" shiori ostida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtiroki uchun tuman hokimi va xalq ta'limi bo'limi, ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tuman bo'limasi tashakkurnomasi va sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Tadbirda buyuk ajdodlarimizning g'azal va she'rlaridan namunalar o'qildi. Sahna asarlaridan parchalar namoyish etildi. San'atkorlarning nafis kuy-qo'shiqlari barchaga xush kayfiyat ulashdi. Tumanda O'zbek tili bayrami kuniga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar davom etmoqda.

2022-10-18 15:42:40